

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

G‘IYOSIDINOV BOBURBEK BAXTIYOR O‘G‘LI

**JAMOAT TRANSPORTINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA
MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
economics sciences**

G'iyosidinov Boburbek Baxtiyor o'g'li

Jamoat transporti jozibadorligini oshirishda marketing vositalaridan
foydalanishni takomillashtirish..... 3

Гиёсидинов Бобурбек Бахтиёр угли

Совершенствование использования маркетинговых инструментов в
повышении привлекательности общественного транспорта 23

Giyosidinov Boburbek Bakhtiyor ugli

Improving the use of marketing tools in increasing the attractiveness of
public transport 44

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 50

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

G‘IYOSIDINOV BOBURBEK BAXTIYOR O‘G‘LI

**JAMOAT TRANSPORTINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA
MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3573 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ikramov Murat Akramovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Qorriyeva Yoqutxon Karimovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Berdiyev Temur Azamatovich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02. raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «14» may soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49. Tel.: (+99871) 239-28-66; faks: (+99871) 239-01-49; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kutubxonasida tanishish mumkin (1438 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49. Tel.: (+99871) 239-28-66; faks: (+99871) 239-01-49; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «1» 05 da tarqatildi.
(2024 yil «30» 04 da 16 -raqamli restr bayonnomasi).



G.K. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

O.Dj.Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., (DSc), dotsent

R.X.Karlibayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi mamlakatlarning rivojlanganlik va raqobatbardoshlik darajasi ko'p jihatdan aholi turmush farovonligini ta'minlash holatlarini ham qamrab olib, bu borada aholining jamoat transportlaridan foydalanish qulayligi va imkoniyatlarining ahamiyati ortib bormoqda. Mamlakatning, ayniqsa, shahar miqyosida, jamoat transportini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. "Dunyoda jamoat transportida rasman 7,3 mln.kishi faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ammo norasmiy ravishda transport xizmatlari bilan yana shu miqdorning 30-40 % aholi bandligini ko'rsatib o'tish mumkin"¹. Bu esa jahonda jamoat transportining jozibadorligini oshirishda marketing vositalaridan samarali foydalanishning dolzarbligini namoyon etadi.

Jahon amaliyotida jamoat transportidan samarali foydalanish, nafaqat aholining transport xizmatlariga ehtiyojini qondirish, balki yirik megapolislarda xavfsizlik, shahardagi tirbandliklarni kamaytirish, iqtisodiy resurslarni tejash, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, xizmat sifatini oshirish borasida marketing vositalarini qo'llash bo'yicha tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamoat transportidan foydalanishda to'lov tizimini takomillashtirish, aholiga qulayliklar yaratish, raqamli marketing tizimini joriy etish, transportning jozibadorligini oshirish, tashuv xizmatidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, xizmatlar haqidagi ma'lumotlarni iste'molchilarga yetkazishda marketing xizmatlaridan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi, megapolis shaharlarning ko'payishi, shu jumladan, Toshkent shahridagi transport tig'izligi, atrof-muhitni saqlash ehtiyoji, aholi sonining o'sishi natijasida jamoat transportiga bo'lgan talab va ehtiyoj yil sayin ortib bormoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" yo'nalishi belgilangan va shu bilan birga strategiyaning 36-maqсадida "Toshkent shahri va hududlarda jamoat transporti tizimini takomillashtirish va uning infratuzilmasini rivojlantirish" vazifasi belgilab berilgan². Mazkur vazifani samarali amalga oshirishda jamoat transporti jozibadorligini ta'minlash tamoyillarini aniqlash, kontent orqali veb-saytni linkbeyting on-line marketing vositasi bilan ommalashtirish va differensiallashuv strategiyasidan foydalanish, jamoat transportining xizmat ko'rsatish sifatini baholash metodikasini takomillashtirish, jamoat transportining jozibadorligini oshirishda marketing vositalaridan foydalanish, shaharda jamoat transportining ustuvorligini ta'minlash masalalarining ilmiy yechimini topishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

¹ ILO (2020). ILO Sectorial Brief on Covid-19 and Urban Passenger Transport Services.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, PF-60, 28.01.2022.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2023 yil 16 fevraldagi PQ-59-son “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 2 fevraldagi PQ-111-son “Toshkent shahar jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022 yil 30 dekabrda PQ-465-son “2023-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 22 yanvardagi PQ-98-son “2022-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021 yil 16 oktabrdagi PQ-5260-son “Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda shu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganligi darajasi. Xorijlik olimlarning ko‘plab tadqiqotlarida transport xizmatlari bozorida marketing vositalaridan foydalanish ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Xususan, F.Kotler, K.L.Keller, Dj.Igan, N.K.Malxotra, Dj.Barnett, S.Moriarti, E.Dixtl, X.Xershgen, K.Lavlok, J.Landrevi, J.Levi, D.Lindon, J.J.Lamben³ va boshqa xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan yo‘lovchi tashish xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing konsepsiyalari va strategiyalaridan foydalanish masalalari V.G.Galaburda, N.V.Karelin, A.Yu.Klinskova, S.M.Korenkova, D.A.Marinov, D.X.Nesterenko, A.R.Raxmatulina, S.D.Fayzulloeva, A.I.Sibulskiy, N.V.Yakunina⁴ va boshqalarning tadqiqotlarida keng bayon etilgan.

³ Котлер Ф., Маркетинг менеджмент. Экспресс-курс / Ф.Котлер 2-е изд. – СПб.: Питер, 2006. -464 с., Котлер Ф., Келлер К.Л. Маркетинг менеджмент., 14-изд. – СПб.: Питер, 2014. -800с., Иган Дж. Маркетинг взаимоотношений: Анализ маркетинговых стратегий на основе взаимоотношений / Дж.Иган; пер. с англ. – М.: ЮНИТИ, 2008. -375 с.; Малхотра Н.К. Маркетинговые исследования. – М.: Вильямс, 2002-960 с., Барнетт Дж., Морриарти С. Маркетинговые коммуникации. Интегрированный подход. 1-е издание, 2001 год // по материалам сайта <http://www.marketing.spb.ru/read/article/a44.htm>, Дихтль Е., Хершген Х. Практический маркетинг. – М.: Высшая школа. ИНФРА-М, 1996. – 215с., Лавлок К. Маркетинг услуг: персонал, технологии, стратегии. – М.: СПб, Киев: Вильямс, 2005 -997с., Дибб С., Симкин Л. Практическое руководство по сегментации рынка. – СПб.: Питер, 2001 -240с. Ландреви Ж., Леви Ж., Линдон Д. Меркатор. Теория и практика маркетинга / Пер. с франц.: В 2т. –Т.2. – М.: МЦФЭР, 2006 -512 с., Чевертон П. Теория и практика современного маркетинга: полный набор стратегий, воситаов и техник / Пер с англ. В.Н.Егорова. – М.: ФАИР-Пресс, 2002. -603 с.; Stephen V. The Marketing and Promotion of Towns and Cities 1850-2000. – London and New York; Spon Press, 1998. -269с.; Ламбен Ж.Ж. Стратегический маркетинг. – СПб.: Наука, 2006. -589с.

⁴ Галабурда В.Г., Бубнова Г.В., Иванова Е.А. Транспортный маркетинг; под ред. В.Г.Галабурды. – М.: ФГОУ «Учебно-методический центр по образованию на железнодорожном транспорте», 2011. -452с., Карелин Н.В. Формирование комплекса маркетинга городских пассажирских перевозок на основе инновационного подхода; Дисс.к.н., Оренбург 2020, Клинскова А.Ю. Разработка организационно-методических основ управления маркетингом в транспортно-экспедитерской компании. Дисс. к.н. – Москва , 2005., Коренькова С.М. Управление маркетинговой деятельностью в системе пассажирского транспорта общего пользования в

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Sh.Bekmurodov, M.R.Boltabayev, M.A.Ikramov, M.N.Irisbekova, M.B.Kalonov, N.M.Nabiyeva, Sh.J.Ergashxodjayeva va boshqalarning tadqiqot ishlari xizmatlar bozorini rivojlantirish strategiyasi va innovatsion usullardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratishga qaratilgan⁵. Shuningdek, transport tizimini rivojlantirishning marketing muammolari B.I.Abdullayev, T.A.Berdiyurov, M.M.Ziyayeva, A.A.Nazarov, Z.N.Raxmatov, S.A.Salimov, G.A.Samatov, K.U.O‘ljaboyev, S.A.Yuldasheva, A.J.Qaxxorov, Ya.K.Karriyeva tomonidan bajarilgan ilmiy ishlarda o‘z aksini topgan⁶.

Respublika olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga qaramay, shahar jamoat transporti faoliyatini tashkil etish, uning jozibadorligini oshirishda marketing vositalaridan samarali foydalanish, yo‘lovchilarni tashish xizmatining rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish bilan bog‘liq masalalar tizimli ravishda tadqiq etilmagan. Aynan shu holat mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilashda asos sifatida xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

муниципальном образовании. Дисс. к.н. – Орел, 2007, Мартынов Д.А. Регулирование качества обслуживания населения автобусным транспортом в регионе. Дисс. к.н. – Москва, 2013, Нестеренко Д.Х. Методика повышения привлекательности городских пассажирских автомобильных перевозок на основе управления структурой транспортных потоков. Дисс. к.н. – Оренбург, 2021, Рахматулина А.Р. Методические положения повышения качества услуг городского общественного транспорта. Дисс. к.н. – Самара, 2014, Файзуллоева С.Дж. Развитие системы организации управления услугами городского пассажирского автомобильного транспорта. Дисс. к.н. – Душанбе, 2019, Цыбульский А.И. Регулирование деятельности городского пассажирского транспорта как социально-экономической системы. Дисс. к.н. – Москва, 2002., Якунина Н.В. Методология повышения качества перевозок пассажиров общественным транспортом. Дисс. д.н. – Оренбург, 2013.

⁵ Bekmurodov A.Sh., Qosimova M.S. va Ergashxodjayeva Sh.J. Strategik marketing. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2010-y. -178b.; Boltabayev M.R. To‘qimachilik sanoatida marketing strategiyasi. Monografiya. – T.: “Fan” nashryoti, 2004.-224-b. 47-b.; Ikramov M.A., Pardaev M.O., Abduhalilova L.T. Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil. Darslik. – T., 2022.; Irisbekova M.N. Marketing tamoyillari asosida transport xizmatlari bozorini optimallashtirish. DSc dissertatsiyasi, TAYI, 2017.; Kalonov M.B. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirish. DSc dissertatsiyasi, TAYI, 2018 y.; Nabiyeva N.M. Xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirishning marketing strategiyasini ishlab chiqish. –PhD diss. avtoref., TDIU, 2021 y.; Ergashxodjayeva Sh.Dj. Marketing tadqiqotlari. //Архив научных исследований, 2020. – №. 13.-129-130-b.

⁶ Abdullayev B.I. Shahar avtobus yo‘nalishlarida transport xizmati sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirish. –PhD dissertatsiyasi, TAYLQEI, 2019.; Berdiyurov T.A. Jamoat transporti faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishni takomillashtirish. –PhD dissertatsiyasi, TDIU, 2021.; Ziyayeva M.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasi. DSc dissertatsiyasi, TDIU, 2018.; Nazarov A.A. Logistik tizimlarda yo‘lovchilar oqimiga transport xizmati ko‘rsatish jarayonlarini baholash va bashorat qilish. DSc dissertatsiyasi, TDTU, 2020. Raxmatov Z.N. Temir yo‘l yo‘lovchi tashish sohasida marketing kommunikatsiyalaridan foydalanish usullarini takomillashtirish. Monografiya, TDTU, 2022.; Salimov S.A. Marketingni boshqarish. Darslik. – Toshkent, 2010.; Samatov G.A. Региональный пассажирский автотранспорт: организация эффективность и перспективы развития. – Tashkent: Fan, 1989.-136 s. Uljabaev K.U., Yarashova V.K. Uzoq muddatli istiqbolda O‘zbekiston transportining strategik rivojlanishning ustuvorliklari va yo‘nalishlari. Транспорт Шёлкового Пути, №1–2, 2019.; Yuldasheva S.A., G‘iyosidinov B.B.. Marketing And Information Support In Public Sector. European Journal of Molecular & Clinical Medicine Volume 08, Issue 01, 2021; Qaxxorov A.J. Iste‘mol tovarlari bozorida marketing tadqiqotlari. – PhD dissertatsiya avtoreferati, TDIU, 2018y.; Ya.K.Qorriyeva O‘zbekistonni jaxon bozoriga chiqishi uchun xalqaro yo‘laklardan samarali foydalanishning logistik transport muammolari. Iqt.fan.dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2004.

Tadqiqotning maqsadi jamoat transportining jozibadorligini oshirishda marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jamoat transporti tushunchasining mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
yo'lovchilarni tashuvini tashkil etishda marketing vositalaridan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish;
shaharning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini hal etishdagi jamoat transportining o'rnini tahlil qilish va uning jozibadorligi nimadan iborat ekanligini o'rganish;

jamoat transportining xususiyatlarini e'tiborga olgan holda yo'lovchi tashish xizmatlarini segmentlash prinsiplarini tadqiq etish;

rivojlangan mamlakatlarda jamoat transporti faoliyati, uning ustuvorligini ta'minlash orqali jozibadorligini oshirish va bu jarayonlardagi marketing vositalaridan foydalanish tajribasini tahlil qilish;

“Toshshahartransxizmat” AJning marketing konsepsiyasini takomillashtirish va uni amalga oshirish algoritmini ishlab chiqish;

“Toshshahartransxizmat” AJ marketing salohiyatini baholash uslubiyotini takomillashtirish;

Toshkent shahrida jamoat transporti samaradorligini oshirishda interfaol marketing kommunikatsiyalarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti “Toshshahartransxizmat” AJning yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti jamoat transporti jozibadorligini oshirishda marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, ekspert baholash, statistik guruhlash, korrelyatsion-regression tahlil, kuzatuv, so'rov va tadrijiy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shahar atrofidagi aholi punktlaridan oraliq bekatlarsiz bevosita shahar markaziga qatnovchi jamoat transportlari uchun tezyurar yo'laklar ajratish, shaharga kirish joylarida yirik zamonaviy xavfsiz, qulay, raqamlashtirilgan smartparkinglarni joriy etish orqali yo'llardagi tirbandlikni bartaraf etish taklifi asoslangan;

aholi uchun jamoat transporti xizmatidan foydalanganlik uchun to'lov kartalari funksiyalarini kengaytirish, yo'lovchilarga to'lov kartalaridan foydalanish uchun rag'batlantiruvchi “yo'l haqidagi qaytimlar” taqdim etish hamda bevosita jamoat transportida yurgan masofa uchun haq to'lash tizimini yo'lga qo'yish orqali jamoat transportining jozibadorligini oshirish taklifi asoslangan;

Toshkent shahridagi jamoat transporti tomonidan aholiga yo'lovchi tashish xizmatlari ko'rsatish madaniyati va sifatini ta'minlashda jamoat transportiga ehtiyojning 2030 yilga qadar o'sish prognozi ishlab chiqilgan;

shahar jamoat transportini rivojlantirish strategiyasini baholovchi ko'rsatkichlar (aholi soni, oila a'zolarining o'rtacha soni, daromad, xarajat, ish haqi, savdo hajmi, kishi boshiga to'g'ri keladigan avtomobillar soni, jamoat transportiga taqdim

etiluvchi dotatsiya va h.k.) asosida Toshkent shahrida 2030 yilgacha jamoat transporti xizmatini takomillashtirish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jamoat transportining jozibadorligini oshirishda yo'lovchilarning xizmat sifatiga qarashlari nuqtai nazaridan qulaylik, axborot bilan ta'minlanganlik, o'rnatilgan tartib-qoidalarga rioya qilish, ishonchlilik, hammaboplik va xamyonboplik tamoyillari takomillashtirilgan;

jamoat transportining jozibadorligini oshirishda kontent orqali veb-saytni linkbeyting on-layn marketing vositasi bilan ommalashtirish va differensiallashuv strategiyasidan foydalanish taklifi asoslangan;

jamoat transportining xizmat ko'rsatish sifatini baholash metodikasi bosib o'tilgan yo'l, yo'lovchi tashuvini belgilangan muddatda amalga oshirish, harakatlanish tezligini jadallashtirish va ekologik ko'rsatkichlarni e'tiborga olish asosida takomillashtirilgan;

mijozga yo'naltirilgan konsepsiyasiga mos marketing vositalaridan foydalanish talablari ishlab chiqilgan;

shahar transport xizmatlari bozoridagi iste'molchilar xatti-harakati va xohishlarini o'zgarishiga tezkor munosabat bildirish, marketing vositalaridan unumli foydalanish asosida jamoat transportining jozibadorligini oshirish algoritmi taklif etilgan;

yo'lovchilarning geografik joylashuvi, qulayligi, ekologik talablarga javob beruvchi transport vositalari va yo'nalishlarini marketing vositalari yordamida tanlash modeli taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning marketing vositalaridan foydalanish orqali xizmat ko'rsatish madaniyati va sifatini oshirish borasidagi ilmiy-nazariy fikrlarni qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, "Toshshahartransxizmat" AJning statistik va buxgalteriya hisobotlari, muallifning marketing tadqiqotlari hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan jamoat transporti jozibadorligini oshirishda marketing vositalaridan samarali foydalanish siyosatini ishlab chiqish, xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining marketing dasturlarini ishlab chiqish, iste'molchilar bilan raqamli aloqalar o'rnatish tizimini yaratishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan jamoat transporti korxonalarida istiqbolli marketing kommunikatsiya dasturlarini ishlab chiqish, ularga ustuvorlik berish hisobidan iste'molchilarning xizmatdan qoniqish darajasini oshirish, ekologiya talablariga javob berish hamda aholiga xizmat qilish samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamoat transportining jozibadorligini oshirishda marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

shahar atrofidagi aholi punktlaridan oraliq bekatlarsiz bevosita shahar markaziga qatnovchi jamoat transporti uchun tezyurar yo'laklar ajratish, shaharga kirish joylarida yirik zamonaviy xavfsiz, qulay, raqamlashtirilgan smartparkinglarni joriy etish orqali yo'llardagi tirbandlikni bartaraf etish taklifi "Toshshahartransxizmat" AJning faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024 yil 16 fevraldagi 4/1239-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tashilgan yo'lovchilar sonini 5,4 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

aholi uchun jamoat transporti xizmatidan foydalanganlik uchun to'lov kartalari funksiyalarini kengaytirish, yo'lovchilarga to'lov kartalaridan foydalanganlik uchun rag'batlantiruvchi "yo'l haqidagi qaytimlar" taqdim etish hamda bevosita jamoat transportida yurgan masofa uchun haq to'lash tizimini yo'lga qo'yish orqali jamoat transporti jozibadorligini oshirish taklifi "Toshshahartransxizmat" AJ faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024 yil 16 fevraldagi 4/1239-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida marketing salohiyati asosida yo'lovchi aylanmasini 3,8 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

Toshkent shahridagi jamoat transporti tomonidan aholiga yo'lovchi tashish xizmatlari ko'rsatish madaniyati va sifatini ta'minlashda jamoat transportiga ehtiyojning 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan o'sish prognozi "Toshshahartransxizmat" AJ faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024 yil 16 fevraldagi 4/1239-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida jamoat transportiga ehtiyojning uzoq muddatli istiqboldagi o'zgarish parametrlari aniqlanib, ularning shahar jamoat transporti faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlariga muvofiqligini ta'minlash imkoni yaratilgan;

shahar jamoat transportini rivojlantirish strategiyasini baholovchi ko'rsatkichlar (aholi soni, oila a'zolarining o'rtacha soni, daromad, xarajat, ish haqi, savdo hajmi, kishi boshiga to'g'ri keluvchi avtomobillar soni, jamoat transportiga taqdim etiluvchi dotatsiya) asosida Toshkent shahrida 2030 yilgacha ishlab chiqilgan jamoat transporti xizmatini takomillashtirish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari "Toshshahartransxizmat" AJ faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024 yil 16 fevraldagi 4/1239-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida Toshkent shahar transport boshqarmasining 2030 yilga qadar marketing dasturlari va yo'lovchilar oqimi prognozlarini ishlab chiqish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 149 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jamoat transportining jozibadorligini oshirishda marketing vositalaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida jamoat transportining shahar infratuzilmasi tarkibidagi ahamiyati, jamoat transportini takomillashtirish prinsiplari hamda marketing vositalaridan foydalanish bosqichlari tadqiq qilingan.

Aholining transport xizmati bilan ta'minlash, shaharlardagi jamoat transporti tizimida marketing faoliyatini takomillashtirish, uning asosida xizmat ko'rsatish hajmi, sifati va madaniyatini oshirish hozirgi kundagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa iqtisodiyotning globallasuvi, “Yashil iqtisodiyot” talablari oshishi, dunyoda bo'lib o'tayotgan turli xil inqirozlar ham ushbu muammoning hal etilishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevralda qabul qilingan “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida so'ngi yillarda aholiga avtotransport xizmati ko'rsatishni yaxshilash, jamoat transporti yo'nalishlari tarmog'ini kengaytirish va harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtobuslar bilan yangilash bo'yicha keng ko'lamlı ishlar olib borilayotgani ta'kidlandi⁷.

Jamoat transporti o'ziga hos afzalliklariga ega bo'lib, ular tirbandlikning oldini olish; atrof-muhitga aks ta'sir ko'rsatmaslik; mablag'ni tejash; insonning jismoniy harakatini yaxshilash; tabiiy va yoqilg'i resurslar kamayishining oldini olish; xavfsizlikni ta'minlash va boshqa ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Shuningdek jamoat transportining ham bir qator joy uchun kurash, zaruratga ko'ra, shahar hududida poyga qilish; jamoat transportining noqulay yo'nalishlari mavjudligi; jamoat transporti tezligi xususiy turidan pastligi; manzilga jamoat transporti bormasligi yoki transport turlari almashuviga ehtiyoj; gigiyenik talablarga javob bermasligi va boshqa shunga o'xshash kamchiliklari mavjud.

Jamoat transportining jozibadorligi, muallifning fikricha, boshqa transport vositalaridan raqobat ustunligi, yo'lovchilar ehtiyojini to'liqroq qondirish borasida o'ziga jalb etish va bir manzildan ikkinchisiga yetkazib borishni tezkor, qulay hamda sifatli amalga oshirilish holatiga aytiladi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-59-sonli qarori.

Jamoat transporti faoliyatini tashkil etuvchi boshqaruv organlari, o'z navbatida, jamoat transportidan foydalanish afzalligini ko'rsatishi, ulardan samarali tashkil etuvchi yo'nalishlar tashkil etish, jadvallarni tashkil etish, jamoat transportining to'xtash joylarida yo'lovchilarga qulaylik yaratish, yengil avtomobillarning harakatlanishini chegaralash, avtobuslar alohida yo'laklarini tashkil etish, "park and ride" (avtomobil to'xtash joyigacha yetib borish va jamoat transportiga o'tish) tizimini rivojlantirishdan iborat.

Jamoat transporti tizimidagi marketing faoliyati boshqaruvining asosiy maqsadi tashuv sifatini ko'tarish va shu asosda hajmlarni oshirishdan iborat.

Bu maqsaddan kelib chiqqan holda jamoat transportidagi marketing faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Transport xizmatidan foydalanuvchilar ehtiyojini o'rganish.
2. Transport xizmatining sifati va madaniyatini oshirish.
3. Jamoat transportining infratuzilmasini rivojlantirish.
4. Iste'molchilarning xohish-istaklarini e'tiborga olgan holda ularning xatti-harakatlarini boshqarish.
5. Jamoat transport xizmatlarini aholiga yetkazish va undan foydalanishni rag'batlantirish.
6. Jamoat transporti mavqeyini (imijini) oshirish.
7. Jamoat bilan kommunikatsiyalarni tashkil etish.
8. "Yashil iqtisodiyot" talablarini amalga oshirish.


Bu vazifalarni samarali bajarish uchun jamoat transportining marketing faoliyati boshqaruvining asosiy talablari, ya'ni prinsiplarini takomillashtirish zarur.

Jamoat transportini samarali tashkil etishdagi asosiy prinsiplar toifasiga, ya'ni mavjud talablar qatorida xavfsizlik; tashuvni amalga oshirish; o'rnatilgan tartib-qoidalariga rioya qilish; axborot bilan ta'minlash, ishonchlilik; hammabop va hamyonboplik prinsiplarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Jamoat transportida marketing faoliyati boshqaruvida teskari aloqa prinsipi asosiy prinsiplardan biri hisoblanadi. Uning sababi marketologlar qo'llovchi bir tomonlama aloqa (reklama, imtiyozli takliflar, ma'lumotnomalar, prays-varaqalar, tovar va xizmat to'g'risida bosma materiallar, kafolat talonlari), iste'molchilarga kerakli ma'lumotlarni yetkazish hamda ularning bo'lajak xatti-harakatini shakllantirish uchun ikki tomonlama kommunikatsiya bilan almashtirish ehtiyojidan kelib chiqadi.

Yo'lovchining jamoat transportida harakatlanishni tanlash qaroriga jamoat transportining marketing faoliyatini boshqarish kuchli ta'sir ko'rsatadi (1-rasm).

Tadqiqotlar natijasida jamoat transportidagi kengaytirilgan marketing vositalarining xizmat yoki mahsulot, narx, joy, siljitish harakatlanish, insonlar, jismoniy muhit, transport xizmatini amalga oshirish jarayoni va unda qo'llanilayotgan usullar xususiyatlar aniqlanib, umumlashtirilgan.



1- rasm. Yo'lovchining jamoat transportidan foydalanishiga marketing faoliyatining ta'siri⁸

Dissertatsiyaning “**Jamoat transporti jozibadorligini oshirishda marketing vositalaridan foydalanish holati tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida xorijiy davlatlar tajribasi va yirik konsalting kompaniyasi McKinzeyning 25 ta shaharlarda o'tkazgan tadqiqotlari hamda “Toshshahartransxizmat” AJning marketing faoliyati o'rganilib, jamoat transportining jozibadorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.


Shahar aholisi soni oshishi, jamoat transportiga ham ehtiyoj ortishiga olib kelmoqda. 1-jadvalda Toshkent shahrining doimiy aholisi soni to'g'risidagi ma'lumotlar jamlangan. Jadvalga ko'ra, 2023 yilda Toshkent shahri aholisining o'sish darajasi 2011 yilga nisbatan 659,9 ming kishiga (2956,4-2296,5) ortgan, yoki 1,29 marta oshganini ko'rish mumkin. 2022 yilga nisbatan esa o'sish sur'ati 103,3 foizni tashkil etgan. Agar shaharga mehmonlar tashrifi oshayotganligi e'tiborga olinsa, Toshkent shahrida jamoat transportiga ehtiyoj yanada oshayotganligini kuzatish mumkin.

⁸ Muallif ishlanmasi.

**Toshkent shahrining doimiy aholisi soni to‘g‘risida ma’lumot
2023 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi⁹**

Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar												
	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Jami, ming kishi	2 296,5	2 309,3	2 340,9	2 352,9	2 371,3	2 393,2	2 424,1	2 464,9	2 509,9	2 571,7	2 694,4	2 862,4	2 956,4
Yillik ko‘payishi, ming kishi	62,2	12,8	31,6	12,0	18,4	21,9	30,9	40,8	45,0	61,8	122,7	168,0	94,0
O‘sish sur‘ati	102,8	100,6	101,4	100,5	100,8	100,9	101,3	101,7	101,8	102,5	104,8	106,2	103,3

Havoni ifloslantiruvchi asosiy antropogen omillar ro‘yxatida avtomobil transporti birinchi o‘rinni egallashi hamda umumiy zararining 40 foizi Yer yuzida harakatlanayotgan avtomobillar hissasiga to‘g‘ri kelishi, qolgan zararining 20 foizi energetika sanoati, 14 foizi korxonalar va tashkilot ishlab chiqarishi, 26 foizi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, maishiy kommunal xo‘jaligi va boshqa sohalar sababli yuzaga kelayotganini kuzatish mumkin. Bitta avtomobil bir kunda 10-12 litr benzin yonilg‘isini sarflaganda, atmosfera havosiga 25 kilogrammcha zararli kimyoviy birikmalar chiqarib, yil davomida harakatlangan avtomobil esa 4 tonnadan ortiq kislorodni yo‘qotishga hissa qo‘shadi¹⁰.




2-rasm. “Toshshahartransxizmat” AJ faoliyati moliyaviy ko‘rsatkichlari (mln.so‘m)¹¹

⁹ www.stat.uz

¹⁰ Mimgboyeva D.O. Atrof-muhitning ifloslanishida avtomobil va undan chiqadigan og‘ir metallarning ta‘siri hamda ekologik holatining o‘zgarishiga olib keluvchi sabablar. Ilm-fan va ta‘limda innovatsion yondashuvlar, muammolar, takliflar va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2022 y.

¹¹ Muallif ishlanmasi.

Korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarida 2018 yil 2022 yilga nisbatan mos ravishda umumiy daromad 8,7 foizga kamaygan, umumiy xarajat esa 160,1 foizga, shahar hokimyatidan olinadigan dotatsiya miqdori 266 foizga, 1000 km uchun umumiy xarajat miqdori esa 196 foizga ortayotganligini ko'rish mumkin (2-rasm).



3-rasm. Tashkent shahrida metro va avtobusda tashilgan yo'lovchilar (mln. yo'lovchi)¹²

3-rasmda 2011 yildan 2022 yilga nisbatan yo'lovchi tashish ko'rsatkichi avtobus transportida 47 foizga kamayib borganligi, metrodan foydalanuvchilar esa 216 foizga ortayotganini kuzatish mumkin. Pandemiya davrida yo'lovchilar soni keskin kamayib ketgan, lekin keyingi yillarda foydalanuvchilar sonining o'sish sur'ati mavjud. 2011 yilga nisbatan hozirgi kunga kelib, shaxsiy avtomobillar soni ortishi ham jamoat transportidan foydalanish ko'rsatkichiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Toshkent shahrida xizmat qiluvchi sakkizta avtobus saroyi mavjud bo'lib, ularda sifatli xizmatni amalga oshirish uchun texnik va tashkiliy ko'rsatkichlarini jamlashga harakat qilindi. Hozirgi kunda Toshkent shahri bo'yicha ja'mi 1550 ta elektrobus, 600 ta 950 ta metan gazda ishlovchi avtobus transportlaridan foydalaniladi. Hozirgi kunda jami 148 ta avtobus yo'nalishlari mavjud bo'lib, ularning kunlik o'rtacha yurish masofasi 265,2 kmni, o'rtacha tezligi esa 22,5 km/sni tashkil etadi¹³. Toshkent metrosining umumiy uzunligi 59,5 kmdan ortiq bo'lib 43 ta stansiya faoliyat yuritib, unda o'rtacha kunlik yo'lovchi tashish hajmi 450-480 ming nafarni tashkil qiladi¹⁴.


¹² Muallif ishlanmasi

¹³ www.tashbus.uz

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi "Toshkent shahar jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-111-sonli qarori.

Toshkent metropoliteni eng xavfsiz, ekologik toza va tezkor vosita hisoblanadi. Albatta, u respublikamizda nafaqat tez va qulay xizmat ko'rsatish, balki yo'l-transport hodisalari qurbonlarini ham kamaytirishga sabab bo'ladi. Masalan, 2021 yilda respublikamiz miqyosida 10001 ta yo'l-transport hodisasi rasman qayd etilgan, 2426 kishi halok bo'lgan, 9230 kishi turli darajadagi tan jarohanlari olgan¹⁵.

4-rasmda muallif tomonidan jamoat transportiga ehtiyojlarni hisobga olgan holda xizmat sifati va madaniyatini oshirishga e'tibor qaratilgan. Rasmda jamoat transportiga ehtiyojni shakllantirishda iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy va boshqa omillarni tizimlashtirishga harakat qilingan.



4-rasm. Aholining jamoat transportiga ehtiyojini shakllantiruvchi omillar¹⁶

Jamoat transportiga aholi ehtiyojini o'rganishda, ulardan samarali foydalanish, eng asosiysi aholining tobora ortib borilayotgan ehtiyojini qondirishdagi ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda muallif tomonidan marketing tadqiqotlarining barcha

¹⁵ www.yhxbb.uz

¹⁶ Muallif ishlanmasi.

vositalari, ya'ni kuzatuv, so'rov va eksperiment (tadrijiy) imkoniyatlaridan foydalanildi. Jumladan, Toshkent shahri aholisi, jamoat transporti mutaxassislari o'rtasida intervyu va so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnomada jami 11 ta savoldan iborat bo'lib, jamoat transportidan foydalanuvchilar o'rtasida oxirgi uch yil mobaynida 1000 dan ortiq respondentlar fikrlarini jamlash hamda ular asosida ekspert baholash imkoniyatidan foydalanildi. Aniqlanishicha, aholining aksariyati (69 %) jamoat transportidan foydalanish afzalligi uning qulayligi va arzonligi bilan baholanadi. Shu bilan birga, aholining ko'p qismi "Toshkent shahar jamoat transporti avtobus haydovchilari haqida fikringiz?" degan savolga taxminan yarmi (46, 8%), "Ko'p haydovchilar madaniyatsiz" yoki "Haydovchi avtobusni qo'pol boshqaradi" degan javob berishgan.

Ekspertlar fikrlarini o'rganish ularni muvofiqlashtirish hamda ulardan samaraliroq foydalanish borasida Kendalning W Konkordatsiya koeffitsiyentidan foydalandik. Ushbu koeffitsiyent quyidagi formula asosida topiladi:

$$W=S/[1/12 \cdot n^2(m^3-m)-n\sum T]^{17} \quad (1)$$

Hisob-kitoblar natijasida $W=0,54$ tashkil qildi. Demak, ekspertlar fikrini keltirish va Kendall W koeffitsiyenti yordamida muvofiqlashtirish inkor etilmaydi. Natijaga ko'ra, taklif etilgan ekspertlar o'rtasida ta'sir etuvchi omillarni tanlashda birlik mavjud (2-jadval).

2-jadval

Ishlab chiqarilayotgan modelning asosiy parametrlari¹⁸

Belgining ifodalanishi	Nomlanishi	O'lchov birligi
U	Jamoat transport xizmatining umumiy hajmi	mln. yo'lovchi
X ₁	Aholining miqdori	mln.kishi
X ₂	Individual avtomobillar bilan ta'minlanganlik	1000 kishiga to'g'ri kelayotgan miqdor
X ₃	Kishi boshiga daromad	ming so'm
X ₄	Oila o'rtacha hajmi	kishi
X ₅	O'rtacha ish haqi realligi	%
X ₆	Kishi boshiga yalpi ichki mahsulotning to'g'ri kelishi	ming so'm
X ₇	Chakana savdo hajmi	mln. so'm
X ₈	Jamoat transportiga sarflanayotgan xarajatlar (oila kishi boshiga)	ming so'm
X ₉	Shahar byudjetdan jamoat transportiga ajratilayotgan mablag'	mln. so'm

Olingan ko'rsatkichlar ularning haqqoniyligi va ishonchliligini ko'rsatib, ishlab chiqilgan model Toshkent shahar aholisining jamoat transportiga ehtiyojini hisoblashga yordam beradi.

¹⁷ Коренькова С.М. Управление маркетинговой деятельностью в системе пассажирского транспорта общего пользования в муниципальном образовании. Дисс. к.н. – Орел, 2017.

¹⁸ Muallif ishlanmasi.

Dissertatsiyaning “**Jamoat transporti jozibadorligini oshirishda marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish**” deb nomlangan uchinchi bobida jamoat transporti jozibadorligi oshirishga ta’sir ko’rsatuvchi omillar, marketing konsepsiyasi, interfaol marketing kommunikatsiyalari bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jamoat transporti jozibadorligini oshirishda marketingning xizmat yoki mahsulot, narx, joy, harakatlanish, rag’batlantirish, insonlar, jismoniy muhit vositalari alohida e’tibor qaratib o’tildi.

Toshkent shahrida jamoat transportining samarali faoliyati yuritilishida hamda atrof-muhitni kamroq ifloslantiruvchi avtomobillar (elektromobil, metanda yuruvchi, gibrid va boshqalar) va toza havo hududlarini tashkil etish hamda ularni ommalashtirish bo’yicha 3-jadvalda shahar jamoat transportining rivojlanish strategiyasini baholovchi ko’rsatkichlar keltirilgan.

3-jadval

Shahar jamoat transportining rivojlanish strategiyasini baholovchi ko’rsatkichlar¹⁹

Ko’rsatkichlar	2022 yilga holat	2030 yilga maqsad
Transportning barqaror turlari foizi (jamoat transporti, piyoda yurish, velosiped)	21 %	53 %
Ommaviy tashuvning tezyurar vositalar bilan yo‘laklar miqdori	1 %	20 %
Ommaviy tezyurar yo‘laklar soni	4	11
